Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

UO'K (UDK): 37.07:371.12

TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG KADRLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-METODOLOGIK ASOSLARI

https://doi.org/10.5281/zenodo.23687733

M.O. Yerejepova
Toshkent Shahridagi Puchon Universiteti Magistranti
minayimerejepova@gmail.com
N.F. Abdunazarova
Ilmiy rahbar
DSc/PhD/p.f.n., prof./dots.

Annotatsiya. *Maqolada umumta'lim maktablarida pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini boshqarishga oid kvazieksperimental tadqiqotning tashkiliy-metodologik asoslari va uning tayyorgarlik bosqichi natijalari bayon etilgan. Tadqiqot 2022–2025-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi to'rtta umumta'lim maktabida o'tkazildi (n = 132; tajriba guruhi — 72, nazorat guruhi — 60 nafar pedagog). U dialektik, tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy va aralash metodlar yondashuvlariga tayanadi.*

Kalit so'zlar: *pedagog kadrlar, faoliyat samaradorligi, ta'lim boshqaruvi, transformatsion rahbarlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), kvazieksperimental dizayn, validlik, ishonchlilik.*

Аннотация. *В статье представлены организационно-методологические основы квазиэкспериментального исследования управления эффективностью деятельности педагогических кадров общеобразовательных школ и результаты его подготовительного этапа. Исследование проводилось в 2022–2025 гг. в четырёх общеобразовательных школах Республики Каракалпакстан (n = 132; экспериментальная группа — 72, контрольная — 60 педагогов) на основе диалектического, системно-деятельностного, компетентностного подходов и методологии смешанных методов.*

Ключевые слова: *педагогические кадры, эффективность деятельности, управление образованием, трансформационное лидерство, непрерывное профессиональное развитие, квазиэксперимент, валидность, надёжность.*

Abstract. *This article presents the organizational and methodological framework of a quasi-experimental study on managing the effectiveness of teaching staff in general secondary schools, and reports the results of its preparatory stage. The study was conducted*

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

in 2022–2025 in four schools of the Republic of Karakalpakstan, Uzbekistan (n = 132 teachers; experimental group = 72, control group = 60). It draws on dialectical, system-activity, competence-based and mixed-methods approaches.

Keywords: *teaching staff, teacher effectiveness, educational management, transformational leadership, continuing professional development, quasi-experimental design, validity, reliability.*

1. KIRISH

Ta'lim sifati, birinchi navbatda, pedagog kadrlar sifati bilan belgilanadi. Xalqaro qiyosiy tadqiqotlar ta'lim tizimining sifati undagi o'qituvchilar sifatidan yuqori bo'la olmasligini ko'rsatgan. 800 dan ortiq meta-tahlil sintezi ham o'quvchi yutuqlariga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar o'qituvchi faoliyati bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning ishonchliligi, asosliligи va amaliy ahamiyati ko'p jihatdan uning tashkiliy-metodologik asoslarining qanchalik to'g'ri va puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq. Tashkiliy-metodologik asos — tadqiqot muammosi, maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, gipotezasi, metodlari hamda tadqiqot jarayonining bosqichlari va resurslarini o'z ichiga olgan integral tizim hisoblanadi. V.V. Kraevskiy (2002) ta'kidlaganidek, metodologik asos ilmiy tadqiqotning «arxitekturasi» bo'lib, uning l'ogiksidan metodologiyasi, metodologiyasidan esa empirik qismi o'sib chiqadi. Ushbu tamoyilga amal qilinmasdan olib borilgan tadqiqotlar ko'pincha eklektik xarakter kasb etadi va ilmiy jihatdan ishonchsiz bo'lib qoladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 832-son qarori, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni [1] shuningdek, «Yangi O'zbekiston» strategiyasi va «Ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish» dasturidan kelib chiqqan holda pedagogik tajriba-sinov metodologiyasiga asoslangan holda tashkil etildi. Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borildigan bo'lib, uning ilmiy va amaliy natijalari mintaqadagi ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shish uchun mo'ljallangan.

Tadqiqot muammosi zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini oshirish zarurligi va bu jarayonni ilmiy asoslangan boshqaruv mexanizmlari orqali ta'minlashning etarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik mavjud. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan dastlabki kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, mintaqadagi umumta'lim maktablarida pedagog kadrlar faoliyati samaradorligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 12–17% past bo'lib, bu muammo tizimli yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot ob'ekti umumta'lim maktablarida pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini boshqarish jarayoni. Tadqiqot predmeti pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini oshirishning pedagogik-psixologik shartlari,

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

mexanizmlari va kompleks baholash tizimi. Tadqiqot maqsadi umumta'lim maktablarida pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan modeli va uning amaliy tatbiq etilishi samaradorligini eksperimental jihatdan isbotlash.

Tadqiqot vazifalari pedagog kadrlar faoliyati samaradorligining mohiyati, tuzilishi va uni belgilovchi omillarni nazariy jihatdan tahlil qilish; mavjud boshqaruv konsepsiyalarini qiyosiy o'rganib, maqbul integrativ model asoslarini ishlab chiqish; pedagog kadrlar faoliyatini baholashning mezonlar-ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash; pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini oshirishning eksperimental dasturini ishlab chiqish, aprobatsiya qilish va samaradorligini tekshirish hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy gipotezasi agar pedagog kadrlar faoliyatini boshqarishda transformatsion rahbarlik, distributiv liderlik va o'rganuvchi tashkilot tamoyillarini o'zida birlashtirgan integrativ model — kompleks kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi, kasbiy rivojlanishning davomli CPD dasturi va qayta aloqa mexanizmlari bilan birgalikda — izchil tatbiq etilsa, unda pedagog kadrlar faoliyatining samaradorligi sezilarli darajada oshadi, bu esa o'quvchilar ta'lim-tarbiya natijalarining yaxshilanishida o'z aksini topadi.

Gipotezaning struktur tahlili quyidagi komponentlarni qamrab oladi: mustaqil o'zgaruvchi — tajriba guruhi pedagoglariga tatbiq etilgan integrativ boshqaruv modeli va CPD dasturi; bog'liq o'zgaruvchi — pedagog kadrlar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari (baholash natijalari, kasbiy motivatsiya, malaka darajasi); oraliq o'zgaruvchilar — kasbiy rivojlanish jarayonidagi o'zaro ta'sir sifati, qayta aloqa tizimining ishlashi, tashkiliy madaniyat; boshqaruv o'zgaruvchilari — pedagog yoshi, ish staji, ta'lim darajasi, maktab joylashuvi.

Gipotezani statistik tekshirish uchun quyidagi mezonlar belgilandi statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0.05$ bo'lishi; eksperimental va nazorat guruhlar o'rtasidagi farq amaliy ahamiyatga ega bo'lishi (Cohen's $d \geq 0.40$); korrelyatsion tahlil natijalarida o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsienti $r \geq 0.50$ bo'lishi. Ushbu mezonlar ilmiy adabiyotda qabul qilingan standartlarga (Cohen, 1988; Field, 2013) mos keladi va pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan bir necha asosiy yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, dialektik metodologiya asosida pedagog kadrlar samaradorligi hodisasi ziddiyatlar, o'zaro bog'liqliklar va taraqqiyot qonunlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. G.V.F. Gegel va K. Marks dialektikasining fundamental tamoyillari — umumiylik, xususiylik va yakkalik birligi — tadqiqotimizda nazariy umumlashmalardan konkret amaliy xulosalarga o'tishni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, tizimli-faoliyatli yondashuv (sistemo-deyatelnostnyy podkhod) tadqiqotning asosiy

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

metodologik ramkasini tashkil etadi. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va P.Ya. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasiga asoslanib, pedagog faoliyati izchil maqsad-motiv-harakat-natija zanjiriga ega tizim sifatida tahlil qilinadi. B.F. Lomov shaxs va faoliyatning tizimli tahlili metodologiyasini ishlab chiqib, individual va ijtimoiy o'lchovlarni bir vaqtda ko'rib chiqishni talab qilgan — bu tamoyil bizning tadqiqotimizda ham qo'llaniladi [3].

Uchinchidan, kompetensiyaga asoslangan yondashuv pedagog faoliyatini o'lchash va baholash uchun operatsional asos bo'lib xizmat qiladi. J. Raven (1984) kompetensiyani «motivatsiyalangan qobiliyat» sifatida ta'riflab, uni tashqi xulq-atvorga qisqartirmasdan, ichki psixologik tarkibiy qismlar (bilim, ko'nikma, munosabat, qadriyat) bilan birlikda ko'rishni tavsiya qiladi [4]. Mahalliy tadqiqotchilar N.A. Muslimov va F.F. Sharipov ushbu yondashuvni O'zbekiston ta'lim amaliyotiga moslashtirishda muhim hissa qo'shgan [5].

To'rtinchidan, aralash metodlar yondashuvi — miqdoriy va sifatiy metodlarning integratsiyasi — Creswell va Plano Clark (2011) tomonidan asoslangan va zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv miqdoriy ma'lumotlarning statistik aniqligini sifatiy ma'lumotlarning kontekstual boyligi bilan birlashtiradi, bu esa natijalarning to'liqligi va ishonchliligini oshiradi. Bizning tadqiqotimizda miqdoriy ma'lumotlar (test natijalari, baholash ballari, statistik tahlil) sifatiy ma'lumotlar (kuzatuv protokollari, suhbat natijalari, kontent-tahlil) bilan qo'shilib, pedagog samaradorligining to'liq manzarasini berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot dizayni sifatida kvazieksperimental dizayn tanlandi. Bu dizaynning asosiy xususiyati shundaki, nazorat va tajriba guruhlar tasodifiy tanlanmaydi — buning o'rniga mavjud tabiiy guruhlar (maktablar, muassasalar) qo'llaniladi. Campbell va Stanley kvazieksperimental dizaynlarning pedagogik tadqiqotlardagi afzalliklarini batafsil ko'rsatib bergan: ular real ta'lim muhitida amaliy ma'lumot olish imkonini beradi, haqiqiy tajriba sharoitini yaratish qiyin bo'lgan hollarda ham qo'llash mumkin [6]. Cook va Campbell qo'shimcha tarzda bunday dizaynlarning ichki va tashqi validligini himoya qilish usullarini ishlab chiqqan. Tadqiqotimiz «nazorat guruhli oldindan va keyindan o'lchash» (pretest-posttest nonequivalent control group design) sxemasiga asoslanadi.

Tadqiqot 2022–2025 yillar davomida to'rt bosqichda amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda har bir bosqichning muddati, vazifalari va qo'llaniladigan metodlar ko'rsatilgan:

1-jadval. Tadqiqot bosqichlari va ularning mazmuni (2022–2025)

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

Bosqich	Muddati	Asosiy vazifalar	Metodlar va natijalar
I	2022-yil sentyabr – 2022-yil dekabr	Muammoni aniqlash, adabiyotlarni o'rganish, gipoteza shakllantirilish, dastlabki diagnostika o'tkazish	Tahlil, kuzatuv, so'rovnoma; diagnostika natijalari
II	2023-yil yanvar – 2023-yil may	Tajriba-sinov dasturini ishlab chiqish, pedagog kadrlarni tayyorlash, birinchi bosqich tajriba o'tkazish	Tashkiliy ish, o'qitish, aralash metodlar
III	2023-yil sentyabr – 2024-yil may	Asosiy tajriba-sinov ishlari, ma'lumot yig'ish, oraliq tahlil	Kuzatuv, test, anketa, statistik tahlil
IV	2024-yil sentyabr – 2025-yil may	Yakuniy ma'lumot yig'ish, statistik qayta ishlash, xulosalar chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish	Matematik-statistik tahlil, xulosalar

Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasidagi to'rtta umumta'lim maktabida olib borildi. Maktablar tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: turli joylashuv (shahar va tuman); turli qamrov ko'rsatkichlari; tadqiqotda ishtirok etishga rozi bo'lganligi; boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlari mavjudligi. Stratifikatsiyalashtirilgan tanlanma usuli asosida ikki maktab tajriba guruhiga, ikki maktab nazorat guruhiga ajratildi.

2-jadval. Tadqiqot bazasi va tanlanma tarkibi

Maktab nomi	Guruh turi	Pedagog soni
41-sonli maktab	Tajriba	38 nafar
25-sonli umumta'lim maktabi	Tajriba	34 nafar
7-sonli umumta'lim maktabi	Nazorat	31 nafar
3-sonli umumta'lim maktabi	Nazorat	29 nafar
JAMI		**132 nafar**

Jami 132 nafar pedagog tadqiqotda ishtirok etdi, shundan 72 nafari tajriba guruhi va 60 nafari nazorat guruhiga kiradi. Tanlanmaning vakilliligini ta'minlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarning dastlabki holatdagi tarkibiy ko'rsatkichlari — jinsi, yoshi, ish staji, ta'lim darajasi va dastlabki samaradorlik ballari — statistik jihatdan tekshirildi va ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t = 0.84$; $p = 0.41 > 0.05$). Bu esa dastlabki teng sharoit ta'minlanganligini ko'rsatadi va keyingi o'zgarishlarni eksperimental ta'sir natijasi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

Tanlanma hajmining yetarliligi G*Power 3.1 dasturi yordamida hisoblab chiqildi. Quyidagi parametrlar uchun: effekt o'lchami d = 0.50 (o'rta effekt), xato darajasi α = 0.05, quvvat β = 0.80, ikki tomonlama t-test uchun minimal zarur tanlanma hajmi 51 kishi aniqlandi. Bizning tanlanmamiz (n = 132, tajriba guruhi n = 72) ushbu minimal talabdan sezilarli darajada yuqori bo'lib, tadqiqotning statistik quvvati yuqori ekanligini kafolatlaydi.

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar uch asosiy guruhga bo'linadi: nazariy, empirik va statistik-matematik metodlar. Ushbu metodlarning har biri muayyan tadqiqot vazifalari uchun tanlab olingan bo'lib, ularning birgalikda qo'llanilishi natijalarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

3-jadval. Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar tizimi

Metod guruhi	Aniq metodlar	Qo'llanilish maqsadi
Nazariy metodlar	Tahlil, sintez, induktiv va deduktiv fikrlash, modellashtirish, qiyosiy tahlil	Adabiyotlarni o'rganish, gipoteza shakllantirish, kontseptual model yaratish
Empirik metodlar	Kuzatuv, suhbat, anketa, test, ekspert baholash, hujjatlarni o'rganish	Birlamchi ma'lumot yig'ish, pedagog faoliyatini baholash
Tajriba-sinov metodi	Konstitutsiyalovchi, shakllantiruvchi va nazorat eksperimenti	O'quv dasturining samaradorligini aniqlash
Statistik metodlar	Deskriptiv statistika, Student t-testi, Pearson korrelyatsiyasi, χ^2-test, eta (η) koeffitsienti	Ma'lumotlarni tahlil qilish, gipotezani tekshirish
Sifat tahlili	Kontent-tahlil, fenomenologik tahlil, interpretatsiya	Chuqur ma'no va kontekstni ochish

Kuzatuv metodi sifatida tuzilgan protokol kuzatuv qo'llanildi. Danielson (2007) tomonidan ishlab chiqilgan kuzatuv protokoli asosida maktab ma'muriyati va ekspert guruh a'zolari tomonidan har bir pedagogning 2 ta dars kuzatib, protokollar to'ldirildi [7]. Kuzatuv protokollarining ishonchliligi «kuzatuvchilararo kelishuv» koeffitsienti bilan baholandi: Cohen's kappa $\kappa = 0.78$ — bu «yaxshi kelishuv» deb baholanadi.

Tadqiqotda pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini o'lchash uchun bir necha diagnostik vosita qo'llanildi. Har bir vositaning tanlanishida uning validligi, ishonchliligi va

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

amaliyoti hisobga olindi. Validlik — vosita o'lchashi kerak bo'lgan narsani haqiqatan o'lchashi; ishonchlilik — takroriy o'lchashda barqaror natijalar berishi; amaliyot — ulardan foydalanish soddалиги va resurslarga talabi. Quyidagi jadvalda qo'llaniladigan diagnostik vositalar va ularning asosiy psixometrik ko'rsatkichlari keltirilgan:

4-jadval. Tadqiqotda qo'llaniladigan diagnostik vositalar va ularning psixometrik xususiyatlari

Diagnostik vosita	O'lchanadigan ko'rsatkich	Ishonchlilik (α)	Manba
Danielson FFT kuzatuv protokoli	Pedagogik mahorat (4 domain)	α = 0.89	Danielson, 2007
Kasbiy motivatsiya anketa	Kasbiy motivatsiya darajasi	α = 0.81	Rean, 2001
360 daraja baholash blanki	Ko'p tomonlama samaradorlik	α = 0.76	Stronge, 2018
Kasbiy yonib ketish shkalasi	Emotsional holat, burnout	α = 0.85	Maslach, 1997
Muallif test to'plami	Kasbiy bilim darajasi	α = 0.78	Muallif, 2023
O'quvchi natijalari protokoli	Bilim sifati, o'rtacha ball	—	DTS, 2022

Izoh: α — Kronbax alpha koeffitsienti (ichki izchillik ko'rsatkichi). α ≥ 0.70 qoniqarli deb hisoblanadi (Nunnally, 1978).

12 nafar ekspert tomonidan har bir test savoli muvofiqlik, aniqlik va murakkablik darajasi bo'yicha baholandi. Ekspertlar baholarining muvofiqlik koeffitsienti (W Kendall) W = 0.74 bo'lib, bu «yuqori muvofiqlik» degan ma'noni anglatadi. Testning tashqi validligi Person korrelyatsiyasi r = 0.71 (p < 0.01) orqali tasdiqlandi — muallif testi natijalari va attestatsiya natijalari o'rtasidagi kuchli musbat korrelyatsiya aniqlandi.

Tadqiqotning shakllantiruvi bosqichida tajriba guruhiga tatbiq etilgan eksperimental dastur — «Pedagog kadrlar faoliyatini samarali boshqaruv va rivojlantirish dasturi» — uch asosiy moduldan iborat bo'lib, umumiy davomiyligi 120 soatni tashkil etadi. Dastur transformatsion rahbarlik nazariyasi, professional o'quv jamoalari modeli va doimiy professional rivojlanish tamoyillari asosida ishlab chiqildi.

Birinchi modul: «Kasbiy kompetensiyalarni baholash va rivojlantirishga kirish» deb nomlanadi. Ushbu modul pedagog kadrlarning mavjud kompetensiya darajasini aniqlash va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan. Dastur tarkibiga quyidagilar kiradi: kasbiy o'z-o'zini diagnostika qilish; Danelson FFT mezonlari bo'yicha batafsil kuzatuv va qayta aloqa, «Professional portfolio» shakllantirish; kasbiy rivojlanish individual rejasini tuzish. Ushbu modul andragogika tamoyillariga asoslanib, har

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

bir pedagog uchun individual traektoriya ta'minlanadi.

Ikkinchi modul: «Pedagogik mahoratni oshirish» deb nomlanib. Bu modul zamonaviy ta'lim texnologiyalari, formativ baholash usullari, sinfni boshqarish strategiyalari va raqamli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Modul tarkibidagi seminarlar hamkasb o'rganish tamoyilida tashkil etildi — pedagoglap juft yoki guruh bo'lib o'zaro dars kuzatadilar, muhokama qiladilar va qayta aloqa beradilar. Timperli va boshqalar meta-tahlili asosida eng katta effekt beradigan komponentlar — qayta aloqa tizimi (d = 0.73) va faol o'rganish (d = 0.61) — dasturga prioritet sifatida kiritildi.

Uchinchi modul: «Kasbiy hamkorlik va o'rganuvchi jamoa». Bu modul «Professional ta'lim jamoasi» modelini maktab ichida joriy etishga qaratilgan. Har hafta 60 daqiqalik hamkorlikdagi o'rganish sessiyalari o'tkazildi — pedagoglap o'z darslarini kollektiv tahlil qildi, muammolarni birgalikda hal qildi va ilg'or tajribani almashdi. Ma'lumot yig'ish jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: oldingi o'lchov — eksperiment boshlanishidan oldin ikkala guruhda ham barcha diagnostik vositalar qo'llanildi, oraliq o'lchov — tajriba o'rtasida (1-yil oxirida) asosiy o'zgarishlarni kuzatish maqsadida o'tkazildi; yakuniy o'lchov — eksperiment yakunida ikkala guruhda ham barcha diagnostik vositalar qayta qo'llanildi. Har bir o'lchov bosqichida ma'lumotlarning to'liqligi va sifatini ta'minlash uchun maxsus nazorat protokoli ishlatildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar SPSS va Microsoft Excel dasturlarida qayta ishlandi. Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: deskriptiv statistika — o'rtacha qiymat, standart og'ish , min-max ko'rsatkichlari; normallik tekshiruvi — Shapiro-Wilk testi va Kolmogorov-Smirnov testi; guruhlararo farqni aniqlash — parametrik holatda Student t-testi, noparametrik holatda Mann-Whitney U-testi; korrelyatsion tahlil — Pparametrik va noparametrik korrelyatsiyasi; effekt o'lchamini aniqlash — Cohen's d va eta-kvadrat (η^2); χ^2-test — sifat o'zgaruvchilar uchun. Barcha statistik xulosalar $p < 0.05$ ahamiyatlilik darajasida qabul qilindi.

Xulosa qilib, mazkur tadqiqotning tashkiliy-metodologik asoslari dialektik metodologiya, tizimli-faoliyatli yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va aralash metodlar yondashuvini o'zida birlashtirgan holda puxta ishlab chiqildi. Kvazieksperimental dizayn, stratifikatsiyalashtirilgan tanlanma (n=132), validlangan diagnostik vositalar va zamonaviy statistik tahlil usullarining qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi. Ushbu metodologik asos keyingi bo'limlardagi empirik natijalarni to'g'ri talqin qilish uchun zarur kontseptual va texnik zamin yaratadi.

Latin American Journal of Education
www.lajoe.org

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. (2020, 23-sentyabr). O'RQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. (2019, 29-aprel). PF-5712-son. https://lex.uz/docs/-4312785

3. Lomov, B. F. *Методологические и теоретические проблемы психологии Moskva 1984*

4. Raven, J. (1984). *Competence in modern society: Its identification, development and release*. H. K. Lewis

5. Muslimov, N. A., Usmonboyeva, M. H., Sayfurov, D. M., To'rayev, A. B. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari* T.2015

6. Campbell, D. T., Stanley, J. C. *Experimental and quasi-experimental designs for research*. Rand McNally. 1963

7. Danielson, C. (2007). *Enhancing professional practice: A framework for teaching* (2nd ed.). ASCD.